




Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodikalar: global tendensiyalar va Ipak yo'li universitetlari tajribasi



29-30 aprel 2026 yil

Samarqand davlat chet tillar instituti

**“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR: GLOBAL
TENDENSIYALAR VA IPAK YO‘LI UNIVERSITETLARI TAJRIBASI” MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

AXBOROT XATI

Samarqand davlat chet tillar instituti “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodika” hamda “Ingliz tili nazariy aspektlari” kafedralari tomonidan 2026-yil 29-30-aprel kunlari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Anjuman sho‘balari:

1. Xorijiy tillar o‘qitishda global tendensiyalar va zamonaviy metodik yondashuvlar;
2. Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan innovatsion metodikalar;
3. Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqot va lingvomadaniy yondashuvlar;
4. Ipak yo‘li universitetlari tajribasi: xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik.

Anjumanning ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz tillari.

Konferensiya mavzusi: **“Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion metodikalar: global tendensiyalar va Ipak yo‘li universitetlari tajribasi”**ga bag‘ishlanadi.

Anjuman qatnashchilari: Ilmiy-amaliy anjumanga Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Ozarbayjon, Indoneziya, Hindiston kabi mamalakatlardan yigirmaga yaqin, Respublikaning OMTlari hamda ilmiy markazlaridan ellikka yaqin vakillarning ishtiroki kutilmoqda. Shuningdek, chop etilgan ilmiy maqolalar **Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberleninka** xalqaro bazalariga, hamda xalqaro nufuzli ilmiy baza Google scholar tizimida indekslanadi. Har bir maqolaga alohida **DOI** raqam beriladi.

Ilmiy tezis (maqola)ni rasmiylashtirish bo‘yicha talablar:

➤ Konferensiya ishtirokchilari tezislarda sho‘ba va tezis mavzusi, muallif (famiyasi, ismi, otasining ismi, manzili, telefon raqami va e-mail) keltirilgan holda, tezisning qisqacha annotatsiyasi (kamida 30ta so‘z), kalit so‘zlar (5-6ta) haqida ma’lumot o‘zbek, rus va ingliz tillarida berishlari kerak.

➤ Ma’ruza tezislari hajmi A4 formatda, 14 o‘lchamli (Times New Roman) shriftda, satr orasi 1 sm hamda qator orasidagi interval 1,5 oraliqda, yuqori va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o‘ngdan 1,5 sm tashlangan holda tayyorlanishi shart;

➤ Tezis hajmi 3 betdan 6 betgacha bo‘lishi kerak.

Mualliflik badali: anjuman tashkil qilish va to‘plamni nashr qilish bilan bog‘liq harajatlarni qoplash uchun maqola narxi 150 000 so‘m etib belgilangan. (*maqolaga xorijlik hammuallif qo‘shilganida narx o‘zgarmaydi*)

Muddat: Maqolalar 2026-yilning 20-apreliga qadar qabul qilinadi.

Eslatma: Maqola anjumanning qaysi sho‘basiga mo‘ljallanganligi aniq ko‘rsatilishi kerak. Tegishli talablarga javob bermaydigan, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan va kechikib topshirilgan maqolalar anjuman materiallariga kiritilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Taqdim etilgan materiallarda mualliflik huquqi buzilishi holatlari yuzasidan tashkilotchi javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Mualliflik huquqiga oid qonunchilik talablariga va ilmiy etika (axloq) qoidalariga qat’iy rioya etish bo‘yicha barcha huquqiy hamda ma’naviy javobgarlik to‘liq muallif(lar) zimmasidadir.

Murojaat uchun: +998775221671

E-mail: xaydaroverkin52@gmail.com

Telegram: https://t.me/Conference_methodology

To‘lov karta raqami: 9860040115034007 Haydarov Erkin